LOTIN TILIDA KLINIK TERMINOLOGIYANI O'QITISH BILAN BOG'LIQ QIYINCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI

Kaxorova Muhabat Askaraliyevna - o‘qituvchi
Toshkent tibbiyot akademiyasi (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. *Lotin tilining fonetik va morfologik qat’iyati, semantik aniqligi uni xalqaro miqyosda tibbiy terminlar yaratishda yetakchi tilga aylantirdi. Lotin tili tibbiyot oliygohlarida nafaqat klassik til sifatida, balki zamonaviy klinik terminologiyaning negizini tashkil etuvchi vosita sifatida o‘rganiladi. Ushbu maqolada klinik terminlarning yasalishida lotin tilining o‘rni, uning zamonaviy tibbiyot va ta’limdagi funksional ahamiyati keng muhokama qilinadi. Shu bilan birga ushbu tilni o‘rganish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklar va ularni oldini olish maqsadida qo‘llaniladigan bir qancha strategik usullar ham taklif etiladi.*

Kalit so'zlar: *qiyinchilik ko'nikmalari, analitik usullar, strategiyaga asoslangan ta'lim, klinik atamashunoslik, fonetik va morfologik tushunchalar.*

CHALLENGES ASSOCIATED WITH TEACHING CLINICAL TERMINOLOGY IN LATIN AND MEETHODS TO OVERCOME THEM

Kakhorova Mukhabat Askaraliyevna - teacher
Tashkent Medical Academy (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract. *The phonetic and morphological stability and semantic accuracy of the Latin language have made it a leading language in the creation of medical terms on an international scale. Latin is studied not only as a classical language, but also as the basis of modern clinical terminology. This article extensively discusses the role of Latin in the creation of clinical terms, its functional significance in modern medicine and education. At the same time, it also proposes a number of strategic methods that can be used to avoid difficulties in learning this language.*

Keywords: *difficulty skills, analytical methods, strategy-based education, clinical terminology, phonetic and morphological concepts.*

ПРОБЛЕМЫ, СВЯЗАННЫЕ С ПРЕПОДАВАНИЕМ КЛИНИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ НА ЛАТИНСКОМ ЯЗЫКЕ, И СПОСОБЫ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ

Кахорова Мухабат Аскаралиевна - преподаватель
Ташкентская медицинская академия (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. *Фонетическая и морфологическая стабильность, а также семантическая точность латинского языка сделали его ведущим языком в создании медицинских терминов в международном уровне. Латынь изучается в медицинских вузах не только как классический язык, но и как инструмент, составляющий основу современной клинической терминологии. В данной статье подробно обсуждается роль латыни в создании клинических терминов, ее функциональное значение в современной медицине и образовании. В то же время предлагается ряд стратегических методов, которые можно использовать, чтобы избежать трудностей, возникающих в процессе изучения этого языка.*

Ключевые слова: *навыки преодоления трудностей, аналитические методы, стратегическое обучение, клиническая терминология, фонетические и морфологические концепции.*

Kirish. Tibbiy ta’lim tizimida terminologik kompetensiyani shakllantirish uchun Lotin tilini o‘qitish integrativ, interaktiv va lingvomadaniy yondashuvlar asosida olib borilishi kerak. Ayniqsa, klinik tilni egallash shifokorning kasbiy faoliyatida **aniq, ixcham va universal aloqa vositasi** sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiyot fanining izchil va tizimli rivojlanishida aniq, ravshan va universal terminologiyaga ehtiyoj nihoyatda yuqori. Shu jihatdan qaralganda, lotin tili asrlar davomida tibbiyot atamalarining asosiy manbai bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Bugungi kunda ham klinik amaliyotda, ilmiy tadqiqotlarda va tibbiy ta’limda qo‘llanilayotgan ko‘plab atamalar o‘z ildizini aynan lotin tilidan olgan. Lotin tilining fonetik va morfologik qat’iyati, semantik aniqligi uni xalqaro miqyosda tibbiy terminlar yaratishda yetakchi tilga aylantirdi. Ushbu maqolada klinik terminlarning yasalishida lotin tilining o‘rni, uning zamonaviy tibbiyotdagi funksional ahamiyati va ta’limdagi roli keng muhokama qilinadi.

Lotin tili klinik terminologiyaning shakllanishida asosiy manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Tibbiyot tarixida qadimgi Rim va yunon madaniyatlarining o‘zaro ta’siri natijasida lotin tili ilm-fan, xususan tibbiyotning rasmiy va universal tili sifatida qaror topgan. Bugungi kunda ham anatomiya, farma-

kologiya, patologiya, diagnostika va boshqa ko‘plab sohalarda ishlatilayotgan terminlarning aksariyati lotin tilida shakllangan yoki uning negizida yasalgan. Avvalo, anatomik terminlar deyarli to‘liq lotin tilida ifodalanadi. Masalan, **"cor"** (yurak), **"hepar"** (jigar), **"pulmo"** (o‘pka) kabi so‘zlar tibbiy matn va hujjatlarda mutlaq aniqlik va qisqalikni ta’minlaydi. Farmakologiya sohasida dori vositalarining nomlanishida ham lotin tili keng qo‘llaniladi: **"Acidum ascorbinicum"** (askorbin kislotasi), **"Natrii chloridum"** (natriy xlorid) kabi terminlar xalqaro miqyosda bir xilda tushuniladi.

Lotin tilining yana bir muhim xususiyati - bu uning qat’iy grammatik tuzilmasi va so‘z yasash imkoniyatlarining kengligi. Lotin tilida prefikslar, suffikslar va asos so‘zlar orqali murakkab, biroq ma’nosi aniq terminlar yaratish mumkin. Masalan, **"hypoglycemia"** (qonda shakar miqdorining kamayishi) so‘zi **hypo-** (kam), **glyc-** (shakar) va **-emia** (qon holati) qismlaridan tashkil topgan. Bunday yondashuv klinik terminlarning mazmunini oson anglashga va to‘g‘ri talqin qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, lotin tili fonetik va morfologik soddaligi sababli turli tillarda so‘zlashuvchi tibbiyot xodimlari uchun umumiy aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi. Misol uchun, bir bemorning kasallik tarixi **(anamnez)** yoki tashxis qo‘yish **(diagnosis)** jarayonida ishlatilgan lotincha atamalar har qanday davlatdagi tibbiyot mutaxassisi tomonidan to‘g‘ri tushuniladi.

Lotin tilining bu kabi xususiyatlari klinik amaliyotda xatoliklarning oldini olishga, tezkor va aniq aloqa o‘rnatishga imkon beradi. Shuning uchun ham zamonaviy tibbiyotda lotin tilining o‘rni faqat tarixiy meros sifatida emas, balki amaliy zarurat sifatida ham saqlanib qolmoqda.

Dolzarbligi:

Tibbiyot ta’limi jarayonida lotin tilini o‘rgatish nafaqat an’anaviy urf-odat, balki ilmiy va amaliy zarurat sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda ko‘pgina tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida lotin tili asosiy o‘quv fanlaridan biri sifatida o‘rgatiladi, chunki u kelajakdagi shifokorlarning kasbiy faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchidan, lotin tilini o‘rganish tibbiyot talabalariga klinik terminlarning tuzilishi, ma’nosi va qo‘llanish mexanizmini chuqurroq anglash imkonini beradi. Anatomik, farmakologik va patologik atamalarni o‘zlashtirish jarayonida talaba har bir atamaning ildizi va grammatik qurilishini o‘rganib, ularni mustaqil tahlil qilish va yangi terminlarni mantiqiy tarzda o‘zlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Misol uchun, **"osteomyelitis"** (suyak iligi yallig‘lanishi) atamasini o‘rgangan talaba **"osteo-"** (suyak) va **"myel-"** (iligi) qismlarining ma’nosini bilgan holda boshqa shunga o‘xshash terminlarni ham osongina tushunib oladi.

Ikkinchidan, lotin tili tibbiy yozuv va hujjatlarni to‘ga‘ri va ravon tuzishda muhim rol o‘ynaydi. Klinik kartalarni to‘ldirishda, epikriz va boshqa tibbiy hujjatlarni rasmiylashtirishda ko‘plab lotincha qisqartmalar va atamalar qo‘llaniladi. Shifokorlar orasida qabul qilingan qisqartmalar (masalan, **p.o.** – "per os" – og‘iz orqali qabul qilish, **q.d.** – "quaque die" – har kuni) tibbiy hujjatlarning aniq va ixcham shaklda tuzilishini ta’minlaydi.

Uchinchidan, lotin tilini bilish talabalarni xalqaro miqyosda raqobatbardosh mutaxassislar darajasiga olib chiqadi. Bugungi globalizatsiya sharoitida xorijiy ilmiy adabiyotlarni o‘qish, xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish va chet elda malaka oshirish uchun lotincha tibbiy terminologiyani yaxshi bilish zarurdir.

Shuningdek, tibbiyot ta’limida lotin tilini o‘rganish talabalarning ilmiy va analitik tafakkurini rivojlantiradi. Lotin tili qat’iy grammatik qoidalarga asoslangan bo‘lgani uchun, u talabalarni mantiqiy fikrlashga, aniqlik va izchillikka o‘rgatadi. Bu esa ularning klinik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari:

Tibbiyotda lotin tilini o‘rganishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar boshqa sohalarga nisbatan murakkabroq bo‘lib, bu tilda maxsus terminologiya, grammatik tuzilmalar va talaffuzdagi o‘ziga xosliklar bilan bog‘liq. Quyida asosiy qiyinchiliklar keltirilgan:

• terminlarning murakkabligi va uzunligi: tibbiy atamalar ko‘pincha yunoncha va lotincha ildizlardan tashkil topgan, va ular juda uzun bo‘lishi mumkin:

Masalan: *gastroenterologiya*, *encephalomyelitis*, *otolaryngologia* — bularni yodlab olish, to‘g‘ri talaffuz qilish va ma’nosini tushunish qiyin kechadi.

• Lotin tilining o‘ziga xos grammatikasi: lotin tili so‘z yasalishi, otlarning jinsga qarab o‘zgarishi, fe’llarning konjugatsiyasi kabi grammatik qoidalarga ega: terminlar turli holatlarga qarab shakl o‘zgartiradi

(*musculus → musculi → musculorum*). Bu tibbiy matnlarni to‘g‘ri o‘qish va tarjima qilishni qiyinlashtiradi.

• o‘xshash ko‘rinadigan, lekin turli ma’nodagi so‘zlar: ko‘plab tibbiy lotin atamalari o‘xshash ko‘rinadi, lekin butunlay boshqa ma’noni anglatadi:

ureter (siydik yo‘li) va *urethra* (siydik chiqaruv kanali); *abdomen* (qorin) va *abductor* (tashqariga harakatlantiruvchi mushak). Bu esa chalkashlikka sabab bo‘ladi.

• talaffuz va yozuvdagi farqlar: lotin tilidagi so‘zlarning yozilishi va talaffuzi o‘zbek yoki rus tillaridagidan farq qiladi:

ae – e deb talaffuz qilinadi (*haemoglobin → gemoglobin*);

ph – f deb o‘qiladi (*pharmacy → farmatsiya*). Bu o‘quvchilar uchun talaffuzda adashishni keltirib chiqaradi.

• yodlash qiyinligi: lotincha atamalarni o‘rganishda katta hajmdagi terminlarni yod olish kerak bo‘ladi, bu ko‘p vaqt va sabr talab etadi. Masalan:

tana qismlari nomlari, mushaklar, suyaklar, kasallik nomlari, dori turlari va boshqalar.

• amaliyotda kam qo‘llanishi: ko‘p hollarda lotin tilidagi atamalar o‘rganiladi, lekin tibbiy muassasalarda ular o‘rniga o‘zbekcha yoki ruscha ekvivalentlar ishlatiladi, bu esa o‘zlashtirilgan bilimni real hayotda qo‘llashga to‘sqinlik qiladi.

Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi strategik usullar tavsiya etiladi:

1. Terminlarning murakkabligi va uzunligi

Qiyinchilik: So‘zlar uzun va murakkab bo‘ladi (*gastroenterologiya*, *encephalomyelitis* va h.k.)

Strategiya:

• So‘zlarni ildiz, qo‘shimcha va old qo‘shimchalarga (prefiks/suffiks) ajratib tahlil qilish.

Masalan: *gastroenterologiya → gastro* (oshqozon) + *entero* (ichak) + *logiya* (ta’limot). Maxsus terminologik kartochkalar tuzib, har kuni 5–10 ta atamani takrorlash.

2. Grammatik murakkablik (turlanish va fe’llar)

Qiyinchilik: So‘z shakllarining o‘zgarishi (turlanishlar, rod, son va holatlar)

Strategiya:

• Har bir turlanish **(**deklinatsiya) uchun alohida jadval tuzish. Oddiy lotinchada mashq jumlalar yozib, turlanishlar, rod, sonlarni o‘rganish. Lotin tilidagi grammatikani tushuntiruvchi interaktiv ilovalardan foydalaning (masalan, *Quizlet*, *Memrise*).

3. O‘xshash atamalar chalkashligi

Qiyinchilik: Ureter vs urethra kabi atamalarni aralashtirib yuborish.

Strategiya:

• Har bir termin uchun rasm yoki diagramma bilan kontekst yaratish. Vizual materiallar, anatomiya atlaslari, video darslar orqali amaliy ko‘rish orqali mustahkamlash.

4. Talaffuz va yozuvdagi farqlar

Qiyinchilik: Yozilish va o‘qilish farqli (masalan, *ph → f*)

Strategiya:

• Lotincha so‘zlarning talaffuzini eshitish uchun audiokitoblar yoki darslardan foydalanish. Har bir yangi so‘z uchun o‘qish va talaffuzni birgalikda mashq qilish.

5. Amaliyotda kam qo‘llanishi

Qiyinchilik: Lotincha atamalar amaliyotda kam ishlatiladi, shuning uchun tez unutiladi.

Strategiya:

• Tibbiy maqolalar, darsliklar va kasallik tarixlarida lotincha atamalarni kuzatib borish.Lotincha nomlarni darslarda yoki amaliyotda izohlab qo‘llashga odatlanish.O‘rgangan har bir so‘zni real klinik holatlar bilan bog‘lab tasavvur qilish.

Xalqaro miqyosda klinik terminologiyani standartlashtirish jarayonida lotin tili asosiy vosita sifatida tanlab olingan. Masalan, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan ishlab chiqilgan kasalliklarning xalqaro klassifikatsiyasi tizimida ko‘plab atamalar lotincha yoki lotin asosida tuzilgan. Bu esa har qanday mamlakatda tibbiyot xodimlari tomonidan kasalliklar, tashxislar va davolash usullarini to‘g‘ri tushunish va tasniflash imkonini beradi.

Bundan tashqari, klinik protokollar, dori vositalari yorliqlari va ilmiy maqolalarda lotin tilida berilgan atamalar noto‘g‘ri talqin qilish ehtimolini kamaytiradi. Tilga olingan atamalar qisqa, aniq va ko‘p hollarda sinonimlardan xoli bo‘lib, ularning har biriga yagona ma’no yuklangan. Masalan, "status asthmaticus" atamasi dunyoning istalgan joyida bir xilda — astma xurujining og‘ir va davomiy shakli sifatida tushuniladi.

Lotin tilining tibbiy aloqa uchun ideal vosita sifatida ishlatilishi zamonaviy tibbiyotda ko‘p darajali muloqotni ta’minlaydi:

• Bemor va shifokor o‘rtasida: Bemorlarning tibbiy hujjatlarida ishlatilgan standart terminlar shifokor uchun aniq tashxis va davolash rejasi tuzishda yordam beradi.

• Shifokorlar o‘rtasida: Mutaxassislar o‘rtasida o‘zaro konsultatsiya va hamkorlikda ishlashda yagona tilni ta’minlaydi.

• Ilmiy sohada: Xalqaro konferensiyalar, maqolalar va tadqiqotlar lotin asosidagi terminologiya orqali bilim almashishni osonlashtiradi.

Xulosa va tavsiyalar:

Klinik terminlarning yasalishida lotin tilining o‘rni beqiyosdir. Ushbu til — tibbiyot ilmining asosi, klinik tafakkur va xalqaro tibbiy muloqotning yagona vositasidir. U klinik amaliyotda, ilmiy izlanishlarda, dori vositalarini nomlashda, shuningdek, kasbiy yozuv va tarjimalarda muhim funksiyani bajaradi. Lotin tiliga asoslangan terminlar aniq, qisqa, universal va tarixiy asosga ega bo‘lgani sababli tibbiyot sohasi uchun zaruriy kommunikativ vositadir.Lotin tili klinik terminlarning shakllanishida asosiy manba hisoblanadi.U tibbiyot ta’limining ajralmas qismi sifatida nafaqat nazariy, balki amaliy foydaga ega.Lotin terminlari xalqaro ilmiy muloqotni yengillashtiradi va tibbiy yozuvlarda yagona tushunchani shakllantiradi. Shifokorlar, farmatsevtlar va ilmiy xodimlar uchun lotin tilini bilish professional savodxonlik mezonlaridan biridir.

Demak, tibbiyot ta’limida lotin tilining o‘rni faqat klinik atamalarni yod olish bilan cheklanib qolmaydi, balki kelajakdagi shifokorlarning kasbiy saviyasini oshirish va ularni zamonaviy tibbiyot talablari darajasida tayyorlash uchun muhim zamin yaratadi.

Adabiyotlar.

1. Godwin-Jones, R. "Emerging Technologies: Mobile Apps for Language Learning." Language Learning & Technology. 2011; 15(2): 2-11.

2. 2. Lai, C., & Li, G. "Technology and Task-Based Language Teaching: A Critical Review." CALICO Journal. 2011; 28(2): 498-521.

3. Kakhorova, M. A. (2024). Comprehensible input approach as an effective language teaching method. World of Scientific news in Science, 2(3), 281-289.

4. Kakhorova, M. A. (2024). The use of qualitative and mixed methods investigating learners in their classrooms. Academic research in educational sciences, (1), 579-587.

5. Askaraliyevna, K. M. (2024). Essential Guidelines for Proficient Foreign Language Learning. Miasto Przyszłości, 52, 532-534.

6. Askaraliyevna, K. M. (2025). THE INTEGRATION AND THE BENEFITS OF TECHNOLOGIES IN LANGUAGE LEARNING. Web of Teachers: Inderscience Research, 3(1), 354-358.

7. Kakhorova, M. A. (2024). Comprehensible input as the most important factor on learning other language. World of Scientific news in Science, 2(5), 272-280.

8. Kakhorova, M. A. (2023). Nutrition of surgical patients. Modern Scientific Research International Scientific Journal, 1(8), 172-180.

9. Askaralievna, K. M. (2024). Effectiveness of Strategy-Based Instruction on Language Learning. International Journal of Formal Education, 3(3), 252-254.

10. Kakhorova, M. A. (2024). Introduction of the tpr approach in the context of intensifying learning activities in foreign language lessons. World of Scientific news in Science, 2(3), 270-280.

11. Mukhabat Askaraliyevna Kaxorova (2024). THE PHENOMENA OF WORD FORMATION IN LATIN AS AN EXAMPLE OF CARDIOLOGICAL TERMS. Academic research in educational sciences, TTA confrence (1), 483-488.

12. Tananushko K.A. Uchebnik latinskogo yazika. Lingua Latina. –Minsk: Xarvest, 2007.

13. Xo‘jaeva L.U. Lotin tili. – Toshkent: O‘ME Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.

14. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘ME Davlat ilmiy nashriyoti, 2006- 2008. 1-5 jildlar.